

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/04.06. 2020.Ped.113.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

XOLDAROVA INDIRA ABDUKARIMOVNA

**BULLINGNING OLDINI OLISHDA LIDERLAR SALOHIYATIDAN
FOYDALANISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Jizzax – 2023

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Xoldarova Indira Abdukarimovna Bullingning oldini olishda liderlar salohiyatidan foydalanish.....	3
Холдарова Индира Абдукаримовна Использование потенциала лидеров в профилактике буллинга.....	25
Kholdarova Indira Abdukarimovna Using leader's potential in prevention of bullying.....	49
E'lon qilingan ishlar ro'uxati Список опубликованных работ List of published works.....	53

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/04.06. 2020.Ped.113.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

XOLDAROVA INDIRA ABDUKARIMOVNA

**BULLINGNING OLDINI OLIHDA LIDERLAR SALOHIYATIDAN
FOYDALANISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Jizzax – 2023

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi
O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasida B2023.1.PHD/Ped4428 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Jizzax davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (jspi_info@umail.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Sharipov Shavkat Safarovich pedagogika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Abdurasulov Rustam Abduraimovich psixologiya fanlari doktori, professor Madraximova Feruza Ruzimbayevna pedagogika fanlari doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Jizzax davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/04.06. 2020 Ped.113.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "21" oktabr soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 130100, Jizzax shahri, Sh.Rashidov, 4-uy. Tel.: (872) 226-13-57, 226-21-73, faks: (872) 226-46-56, e-mail: jspi_info@umail.uz) Jizzax davlat pedagogika universiteti. Bosh o'quv bino, 2-qavat, ma'ruzalar zali

Dissertatsiya bilan Jizzax davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (26 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 130100, Jizzax shahri, Sh.Rashidov ko'chasi, 4-uy. (872) 226-13-57, 226-21-73, faks: (872) 226-46-56 e-mail: jspi_info@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "14" oktabr kuni tarqatildi.
(2023-yil "14" oktabr dagi 06 raqamli reestr bayonnomasi.)



O.X.Turakulov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
p. f. d., professor

N.H.Kushvaktov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
p. f. n., dotsent

X.A.Meliyev
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi,
p. f. n., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda bulling global darajada ko‘rib chiqilayotgan dolzarb muammolardan biridir. Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyada bolalarning jismoniy, psixologik, zo‘ravonlik, haqorat, ekspluatatsiyaning barcha turlaridan himoya qilish kabi huquqlar belgilangan. BMT Bosh Assambleyasi 2014-yilda 69/158 sonli rezolyutsiyani qabul qilib, unda bullingning butun dunyoda ro‘y berayotgani, uning bolalar huquqiga ta‘sir ko‘rsatayotgani va zo‘ravonlik qurbonlari uzoq muddatli salbiy oqibatlar ta‘sirida qolib ketayotganini ma‘lum qildi. Rezolyutsiyaga asosan Bosh Assambleya a‘zo davlatlarga bolalarni maktablarda bullingdan muhofaza va himoya qilish bo‘yicha choralarni qabul qilishni tavsiya qildi. YUNESKOning “Maktabda zo‘ravonlik va bulling” global hisobotiga ko‘ra, har yili dunyo bo‘yicha 246 millionga yaqin bolalar va o‘smirlar maktabda zo‘ravonlik va ta‘qibga duch kelishadi. BMTning Bolalar jamg‘armasi (YUNISEF)ning ma‘lumotlariga ko‘ra, 13–15 yosh oralig‘idagi 130 milliondan ziyod bolalar maktabda bullinga uchraydi.

Dunyoda, xususan, AQSh, Norvegiya, Finlyandiya, Avstriya, Italiya, Ispaniya, Shvetsiya kabi mamlakatlarda ta‘lim muassasalarida bullingning oldini olish bo‘yicha keng ko‘lamli ilmiy-tadqiqotlar olib borilib, jumladan, bullinga qarshi samarali – maktabdagi bulling profilaktikasi borasida “kompleks dastur”lar ishlab chiqilgan. Xavfsiz maktab muhiti inson huquqlarini muhofaza qilish, ta‘lim oluvchilarda tinchlik va kuch ishlatmaslik madaniyatini shakllantirish, bolalar farovonligini ta‘minlash, shuningdek, ta‘limning maqbul sharoitlarini yaratishda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

So‘nggi yillarda respublikamiz umumta‘lim maktablarida bulling profilaktikasi va uning oldini olish borasida me‘yoriy asoslar yaratildi va “Mazkur yo‘nalishda rivojlangan mamlakatlarning ilg‘or tajribasini o‘rganish va tahlil qilish asosida umumta‘lim muassasalarida o‘quvchilar o‘rtasida bulling profilaktikasi va uning oldini olish dasturini joriy etish” kabi vazifalar belgilangan¹. Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2019-yilda 13 yoshdan 15 yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘rtasida qasddan sodir etilgan jinoyatlar ko‘rsatkichlari 129 kishini, 2020-yilda 188 kishini (o‘rish 46%) va 16-17 yoshdagi bolalar orasida mos ravishda 689 va 1088 kishini tashkil etdi (o‘rish 58%). Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, bu holat bolalarning rivojlanishi uchun ma‘lum xavflarni keltirib chiqarishi, ularning huquqbuzarliklarga moyilligini oshirishi mumkin.

Mazkur dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 7-yanvardagi O‘RQ-139-sonli “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-sonli “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-sonli “Yoshlarga oid davlat siyosati

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentabrdagi PF-5538-sonli “Xalq ta‘limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” farmoni.

samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”, 2020-yil 30-iyundagi PF-6017-son “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 5-sentabrdagi PF-5538-son “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 9-avgustdagi PF-6275-son “Bola huquqlarining kafolatlarini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2019-yil 22-apreldagi PQ-4296-son “Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2020-yil 30-iyundagi PQ-4768-son “O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamizda o‘spirinlar o‘rtasida shaxslararo nizolarning kelib chiqish holatlari, ularning turli xil xarakter tipidagi xulq-atvor xususiyatlari, o‘spirinlik davridagi nizolilik darajasini psixologik korreksiyalash usullari, ijtimoiy institut sifatida oiladagi munosabatlar, umumta’lim maktablari o‘quvchilari o‘rtasida bullingning sotsiologik tahlili kabi masalalar A. Madraximov, N. Egamberdiyeva, F.Z. Rasulova, N.I. Xalilova, Ye.A. Xaxlina, G.R. Tojiboyeva kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan².

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlarida bolalar va o‘smirlarni tarbiyalash, maktabdagi bullingning tarqalishidagi asosiy xususiyatlar, uning rollar tuzilmasi, ijtimoiy, psixologik jihatlari D.N. Solovyov, T.G. Grishina, K.S. Shalaginova, N.V. Kuxtova, S.M. Shingayeva, I.P. Ivanov, A.S.Makarenko, O.D. Malanseva kabi tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan³.

² Madraximov A.M. Социологический анализ профилактики насилия (буллинга) среди учащихся средних школ. Авт. дис.канд...соц. наук. Ташкент. 2023. –С. 14–17; Расулова Ф.З. Психологические особенности проявления агрессивного поведения подростков. Авт. дис.канд...псих. наук. Ташкент. 2018. – 25–27 с; Халилова Н.И. Ўсмирлик даврида ўзини ўзи назорат қилиш шаклланишининг психологик хусусиятлари. Авт. дис.канд...псих. наук. Ташкент. 2010. – С. 9–10; Хохлина Е.А. Особенности рефлексии как фактор успешности социализации в юношеском возрасте. Авт. дис. канд...псих. наук. Ташкент. 2012. – 13–15 с; Тожибоева Г.Р. Особенности психокоррекционной деятельности школьного психолога в конфликтных ситуациях (на примере учеников подростков). Авт. дис.канд...псих. наук. – Ташкент. 2018. – С. 33–35; Эгамбердиева Н. Ижтимоий педагогика. Пособие. – Ташкент, 2009. – 219 с;

³ Соловев Д. Н. Использование потенциала первичного коллектива в профилактике буллинга среди школьников подросткового возраста. Авт. дис. канд...пед. наук. Тюмен. 2015. – С. 14–15; Гришина Т. Г. Социально психологические факторы ролевого поведения подростков в ситуации буллинга. Авт. дис. канд...соц. псих. наук. Москва. 2021. – 14 с; Шалагинова К. С. Теоретико-методические основы деятельности педагога-психолога по предотвращению буллинга в школах Тульского региона гендерно-возрастной аспект. Монография. Тула. 2014. – 237 с; Кухтова Н. В., Шингаев С. М. Буллинг в условиях образовательной среды; межкультурный аспект. Монография. Витебск, 2018. – 172 с.; Маланцева О.Д. «Буллинг» в школе. Что мы можем сделать. Социальная педагогика. 2007. – С. 90–92.

Bugungi kunda maktab bullingi va uning oqibatlarini oldini olish sohasidagi eng ilg'or tadqiqotchilar orasida D. Olveus, K. Rigbi, D. Pepler, P.K. Smit, K. Salmivalli, R. Ortegalarini qayd etishimiz mumkin. Ular bulling tushunchasining mazmuni, ularning turlarini tadqiq etishgan, shuningdek, o'smirlar orasida bullingning oldini olish usullari va kompleks dasturlarini ishlab chiqishgan⁴.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Jizzax davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish sharoitida oliy ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini innovatsion rivojlantirish mexanizmlarini yaratish va amaliyotga tadbiq etish muammolari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi maktablarda bullingni oldini olish bo'yicha pedagogik algoritmini ishlab chiqish hamda modul darslar yordamida liderlarning bilimlarini oshirish.

Tadqiqotning vazifalari:

ilmiy-pedagogik tahlil asosida bullingning kelib chiqish tarixi, mazkur hodisaning turlari va o'rganish bosqichlarini hamda bullingdagi barcha ishtirokchilarning psixologik jihatlarini aniqlash;

milliy pedagogik yondashuvlardan kelib chiqib bullingga qarshi xorijiy dasturlarni o'rganish va qiyosiy tahlil qilish;

maktablarda bullingning oldini olish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi tajribasini o'rganish;

O'zbekiston yoshlar ittifoqi qoshidagi "Kamalak" bolalar tashkiloti liderlar Kengashi tuzilmasining mexanizmlarini, organigrammalarini va Nizomini takomillashtirish;

maktabda bullingning oldini olishga qaratilgan pedagogik algoritmini ishlab chiqish;

"tengdosh-tengdoshga o'rgatadi" tamoyiliga ko'ra liderlar salohiyatidan foydalanib bullingning oldini olish bo'yicha bilim va ko'nikmalarning shakllanishiga oid modulli o'qitish texnologiyasini ishlab chiqish va qo'llanish samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida "tengdosh tengdoshga o'rgatadi" tamoyili asosida liderlarda bullingning oldini olish bo'yicha bilim va ko'nikmalarni oshirishning kaskad o'qitish jarayoni tanlanib, tajriba-sinov ishlarida O'zbekiston Yoshlar ittifoqi qoshidagi "Kamalak" bolalar tashkilotining mintaqaviy (Andijon,

⁴ Dan Olweus. *Bullying at school. What we know and what we can do.* Malden. Blackwell Publishing. 1993. – P.148. Salmivalli C., Helteenvuori T. Reactive, but not proactive aggression predicts victimization among boys // *Aggressive Behavior: Official Journal of the International Society for Research on Aggression.* 2007. Vol. 33. No. 3. – P. 198–206.

Rigby K. & Slee P.T. Bullying among Australian schoolchildren: Reported behavior and attitudes towards victims // *Journal of Social Psychology.* 1991. No. 131. – P. 615–627. Smith P.K. School-based interventions to address bullying // *Eesti Haridustea- duste Ajakiri. Estonian Journal of Education.* 2016. Vol. No. 2. P. 142–164. Ortega R., Del-Rey R. & Mora-Mercan J.A. SAVE Model: An anti-bullying intervention in Spain. In P.K. Smith D. Pepler, & K. Rigby (Eds.). *Bullying in schools: How successful can interventions be?* Cambridge: Cambridge University Press. 2004. – P. 167–186.

Fargʻona, Toshkent viloyatlarining), tuman va maktab Liderlar Kengashidan jami 294 nafar liderlar jalb qilingan.

Tadqiqotning predmetini liderlarda bullingning oldini olish, ularning bilim va koʻnikmalarni oshirishga oid taʼlim mazmuni, shakllari va uslublari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida nazariy (oʻrganish va tahlil, oʻquv-uslubiy adabiyotlarni qiyosiy taqqoslash, analogiya) modellashtirish), diagnostik (soʻrovlar, test oʻtkazish, kuzatish, loyihalashtirilgan metodlar), prognostik (taʼlimni baholash, ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish, modellashtirish), pedagogik tajriba-sinov va natijalarni matematik va statistik tahlil qilish kabi majmuaviy usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bullingning kelib chiqishi va oldini olishning pedagogik algoritmi oila hamda taʼlim muassasasining oʻzaro integratsiyasining mazmun-mohiyatini belgilovchi maʼnaviy-axloqiy tushunchalarning pedagogik imkoniyatlari intellektual salohiyatni oshirish, oʻzaro munosabatlar amaliyligiga yoʻnaltirilgan zamonaviy hamkorlik aloqalarini oʻrnatish hamda standart va nostandart vaziyatlarda makro va mikro muhitga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

bullingni oldini olishda liderlarning maʼnaviy-axloqiy tarbiyasining yuksalishidagi tutgan oʻrnini belgilash, holatni xolis baholash, intellektual salohiyatni oshirish, axloqiy bilim, shaxsiy-tajriba, mustaqil faoliyat, tashabbuskorlik mezonlari takomillashtirilgan;

oʻquvchilar maktabdan tashqari vaqtda bullingni oldini olishga oid ijtimoiy loyihalardagi faoliyati, ularning bilim va koʻnikmalari ijtimoiy vaziyatlarni boshqarish, oʻz-oʻzini anglash, sogʻlom munosabat tamoyillari, sabab va oqibat tendensiyalariga davlat va nodavlat tashkilotlarining tahqirlash holatlarining oldini olishda kollaborativ hamkorligi asosida taʼlimining paradigmalari va strategiyalari takomillashtirilgan;

jamoada doʻstona muhitni yaratishda “Tengdosh-tengdoshga oʻrgatadi” tamoyiliga muvofiq liderlar salohiyatidan foydalanib bullingning oldini olish boʻyicha bilim va koʻnikmalarning shakllanishiga oid empatiya, kommunikativ koʻnikmalar, huquq va majburiyatlarni anglashga yoʻnaltirilgan “Biz bullingga qarshimiz”, “Yomon tinglovchilar”, “Mening huquqlarim”, “Bizning savol”, “Bulling mening hayotimda”, “Men emas Biz”, “Xarakter”, “Mening tuygʻularim” kabi interfaol oʻyinlar, jamoaviy-ijodiy faoliyatga yoʻnaltirilgan modulli oʻqitish texnologiyasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Liderlar uchun “Liderlar faoliyatini tashkil etish” oʻquv qoʻllanmasi ishlab chiqilgan;

“Tengdosh tengdoshga oʻrgatadi” tamoyili boʻyicha doʻstona va xayrxoh muhitini yaratish boʻyicha interfaol oʻquv mashgʻulotlari (5 leader moduls) majmuasi ishlab chiqilgan;

O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi huzuridagi “Kamalak” bolalar tashkiloti liderlari tizimini takomillashtirish bo‘yicha takliflar va tavsiyalar ishlab chiqilgan, tashkilotning me‘yoriy-huquqiy asosi takomillashtirilgan;

maktabda bullingning oldini olish va unga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha “Maktablarda bullingga qarshi kurash nizomi” ishlab chiqilgan, shuningdek, rahbarlar, xizmatchilar, o‘quvchilar, ota-onalar va boshqa qonuniy vakillarning xulq-atvori, huquq va majburiyatlari to‘g‘risidagi tartiblar belgilangan;

izchil mantiqiy chora-tadbirlarning ketma-ketligi, shuningdek, me‘yoriy-huquqiy hujjatlarning tasdiqlanishi, axborot materialini (uslubiy tavsiyalar, eslatmalar, bukletlar) maktabning sayti yoki telegram kanalida joylashtirish, pedagoglar, o‘quvchilar, ota-onalar bilan ishlash, o‘quvchilar orasida so‘rovnomlar o‘tkazish, o‘quv yili davomida sinflarda shaxslararo munosabatlarning monitoringi, jumladan, maktablarda “Bullingning oldini olish bo‘yicha umumta‘lim maktablarining ish rejasi” ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy izlanishida dissertatsiya mavzusi bo‘yicha asoslanganlik, rasmiy manbalardan olingan yondashuvlar va uslublar, nazariy ma‘lumotlarning qo‘llanishi, tadqiqot maqsadlari va dissertatsiyaning bir-birini o‘zaro to‘ldiradigan usublarning tatbiq etilishi, keltirilgan miqdoriy va sifat tahlillarining ta‘minlangani, tajribaviy ishning reprezentativligi va olingan natijalarning matematik statistika usullari bilan ishlov berilgani, xulosalar, takliflar va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilishi, shuningdek, olingan natijalarning vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati taqdim etilgan nazariy xulosalar va tavsiyalarning liderlarda maktab bullingining oldini olish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarning darajasini oshirishga imkon yaratadigan nazariy xulosalar va tavsiyalar, ularda o‘z tengdoshlariga nisbatan empatiya va hamdardlikni rivojlantirishni, kollektivism va kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish bilan izohlanadi.

Natijalarning amaliy ahamiyati dissertatsiya natijalaridan “tengdosh tengdoshga o‘rgatadi” tamoyili bo‘yicha faollar uchun maktab bullingining oldini olish kurslarning o‘tkazilishini takomillashtirishda, interfaol uslublar asosida nazariy va amaliy o‘qitishni tashkil etishda tatbiq etilishida, maktabda do‘stona va xayrixox muhitni yaratishda uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqish bilan belgilanib, shu asosda “5 leader modul” dasturi yordamida maktablarda ta‘limga mas‘ul barcha shaxslar ish faoliyatida qo‘llashi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bullingning oldini olishda liderlar salohiyatidan foydalanish yuzasidan o‘tkazilgan tadqiqot natijalari asosida:

bullingning kelib chiqishi va oldini olishning pedagogik algoritmi oila hamda ta‘lim muassasasining o‘zaro integratsiyasining mazmun-mohiyatini belgilovchi ma‘naviy-axloqiy tushunchalarning pedagogik imkoniyatlari intellektual salohiyatni oshirish, o‘zaro munosabatlar amaliyligiga yo‘naltirilgan zamonaviy hamkorlik aloqalarini o‘rnatish hamda standart va nostandart vaziyatlarda makro va mikro muhitga ustuvorlik berish kabi taklif va xulosalardan “Maktabning bullingga qarshi kurash bo‘yicha Nizomi” ishlab chiqilgan va

O‘zbekiston Respublikasining umumta’lim maktablariga joriy etilgan (Xalq ta’limi vazirligining 2022-yil 23-dekabrda 06-06/1-2796-son ma’lumotnomasi). Natijada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilar orasida bullingni oldini olishning nazariy asoslarini ishlab chiqishga erishilgan;

bullingni oldini olishda liderlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasining yuksalishidagi tutgan o‘rnini belgilash, holatni xolis baholash, intellektual salohiyatni oshirish, axloqiy bilim, shaxsiy-tajriba, mustaqil faoliyat, tashabbuskorlik mezonlari ishlab chiqilib Yoshlar ittifoqining tizimida joriy etilgan (O‘zbekiston yoshlar ittifoqining 2022-yil 20-dekabrda 04-13/997-sonli ma’lumotnomasi). Natijada sinf, maktab, tuman (shahar) viloyat va respublika sardorlarining organigrammasi maqbullashtirilgan va zamonaviy yo‘nalishlar ta’lim, media, madaniyat, sport, ekologiya, inklyuziya asosida faoliyatini olib borishga xizmat qilgan;

o‘quvchilar maktabdan tashqari vaqtda bullingni oldini olishga oid ijtimoiy loyihalardagi faoliyati, ularning bilim va ko‘nikmalari ijtimoiy vaziyatlarni boshqarish, o‘z-o‘zini anglash, sog‘lom munosabat tamoyillari, sabab va oqibat tendensiyalariga davlat va nodavlat tashkilotlarining tahqirlash holatlarining oldini olishda kollaborativ hamkorligi asosida ta’limining paradigmalari va strategiyalarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili – Bola huquqlari bo‘yicha vakilining 2022-yil 26-dekabrda 02-07/1012-sonli ma’lumotnomasi). Natijada davlat va nodavlat tashkilotining bullingni oldini olish bo‘yicha tizimli hamkorligini yo‘lga qo‘yishga xizmat qilgan;

jamoada do‘stona muhitni yaratishda “Tengdosh-tengdoshga o‘rgatadi” tamoyiliga muvofiq liderlar salohiyatidan foydalanib bullingning oldini olish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarning shakllanishiga oid empatiya, kommunikativ ko‘nikmalar, huquq va majburiyatlarni anglashga yo‘naltirilgan “Biz bullingga qarshimiz”, “Yomon tinglovchilar”, “Mening huquqlarim”, “Bizning savol”, “Bulling mening hayotimda”, “Men emas Biz”, “Xarakter”, “Mening tuyg‘ularim” kabi interfaol o‘yinlar, jamoaviy-ijodiy faoliyatga yo‘naltirilgan modulli o‘qitish texnologiyasiga doir taklifi Yoshlar ishlari agentligi tomonidan “Bulling profilaktikasi bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi” hamda Yoshlar forumida “Zamonaviy ta’lim bolalar nigohida: Z avlod” loyihasining dasturini ishlab chiqishda metodik yordam sifatida xizmat qilgan (Yoshlar ishlari agentligining 2022-yil 26-dekabrda 1-15-23-4478-son ma’lumotnomasi). Natijada liderlarning bullingni oldini olish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 11 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 4 ta respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, asosiy matn 115 sahifa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning nazariy va amaliy jihatlari tahlil etilgan va umumlashtirilgan, xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi va muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan, ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi va e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Bulling madaniyat fenomeni va tadqiqot obykti sifatida”** deb nomlangan birinchi bobida XX asrning boshlaridayoq g'arb olimlari e'tiborni qaratgan bullingning genezisi ko'rib chiqilgan. Ilmiy ishlarning tahliliga ko'ra A.Madraximov, F. Rasulova tomonidan bullingning sotsiologik analizi o'tkazilib, o'smirlarning agressiv xatti-harakatlarning psixologik xususiyatlari o'rganilganligi tahlil etilgan.

Tadqiqot ishida “bulling” tushunchasi, uning turlari, bulling tarkibiga kiruvchi komponentlarning xususiyatlari mazmun-mohiyati tavsiflangan. Tadqiqot jarayonida shu narsa aniqlandiki, mazkur muammoning turli jihatlari pedagog, psixolog va sotsiolog olimlar tomonidan tadqiq etilganligi ochib berilib, jumladan, E.Miller maktabdagi zo'ravonlikka bergan ta'rifida, bullingni bir bola yoki bolalar guruhining boshqa bolaga nisbatan ongli ravishda, jismoniy yoki psixologik jihatdan uzoq muddatli shafqatsiz munosabat jarayoni sifatida keltirib o'tganligi, Norvegiyalik olim Den Olveusning ta'kidlashicha, “O'quvchi uzoq muddat davomida bir yoki bir necha bola tomonidan bir necha marta salbiy ta'sirlarga uchrasa, bullingni boshidan kechirishi”ni. D.Leyn tomonidan esa, bullingni maktabdagi zo'ravonlik bilan bog'lab, bu o'zida individ yoki guruh tomonidan o'zini mazkur holatda himoya qila olmaydigan individga uzoq muddatli jismoniy va psixologik zo'ravonlikni gavdalantirishini ta'kidlaganligi pedagogik jihatdan tahlil etilgan.

Psixoterapevt I. Berdishev tomonidan bullingni o'zini himoya qilish xarakteriga ega bo'lmagan va bir yoki bir necha kishilardan kelib chiqadigan ongli, davomli zo'ravonlik deb bayon etganligi aniqlashtirilgan. Sotsiolog I.N.Konning bulling – bu boshqalarda qo'rquv keltirib chiqarish va shu bilan o'ziga buysundirishga yo'naltirilgan qo'rqitish, jismoniy yoki psixologik terror ekanligi, shuningdek, pedagog O.Malansevaning fikricha “maktabdagi bulling” o'zida individ yoki guruh tomonidan o'zini mazkur vaziyatda himoya qila olmaydigan individga nisbatan davomli jismoniy yoki psixologik zo'ravonlik jarayoniga tegishli ijtimoiy, psixologik va pedagogik muammolarning majmuasini qamrab olganligi tanqidiy o'rganilgan.

Tadqiqot nuqtai nazaridan milliy pedagogikada “bulling” atamasining ta'rifi bugungi kunga qadar shakllantirilmaganligi qayd etilib, tadqiqotchi tomonidan

“bulling” tushunchasiga yuqoridagi ta’riflardan kelib chiqib, “Bulling – bu tasodifiy, bir martalik yoki kamdan kam sodir bo‘ladigan holat bo‘lmasdan, balki doimiy ravishda shaxsga yo‘naltirgan psixologik, fiziologik va verbal ko‘rinishdagi tizimli tahqirlash hisoblanadi”. “Bulling – bu barcha turlar va shakllardagi tizimli tahqirlash” hisoblanadi deb, yangicha ta’rif berilgan.

Tadqiqot ishida bullingning turlari (jismoniy, psixologik va og‘zaki) o‘rganilib chiqib, bulling jarayoni ishtirokchilarning quyidagicha psixologik portreti aniqlangan: 1) *Buller yoki agressor* – bullingning tashabbuskori, o‘z tengdoshlariga nisbatan zo‘ravonlikni qo‘llaydigan bolalar; 2) *Qurbon* – bullingga uchrayotgan bolalar; 3) *Kuzatuvchilar* – bulling vaziyatidan izolyatsiya pozitsiyasidagi bolalar; 4) *Himoyachilar* – bulling qurbonini himoya qiladigan bolalar, tahqirlashga uchrayotgan bolaga taskin beruvchi va bulling sodir bo‘lganda uni himoya qiluvchilar.

Tadqiqot natijalariga muvofiq, sinfda himoya qiluvchilar qanchalik ko‘p bo‘lsa, bulling holatlari shunchalik kamayishi asoslab berilgan. Umumiy g‘oya asosida birlashgan bolalardan tarkib topgan “jamoa” bullingning keskin bartaraf etilishiga yoki kamayishiga olib kelishi aniqlangan. Atoqli olim Anton Makarenko jamoada bolaga himoyalanganlik, xavfsizlik hissi va ijodiy rivojlanish, erkin shaxsiyatni rivojlantirish, do‘stona va komfort muhitni yaratishga chorlab, bu bilan kasbiy-pedagogik amaliyotda “jamoa” atamasini kiritganligi oydinlashtirilgan. A.Makarenkoning “Jamoa – kishilarning umumiy mehnatda umumiy maqsadlarga erishish uchun tuzilgan birlashma bo‘lib, belgilangan vakolatlar va mas’uliyatlar tizimi bilan farqlanadigan uyushmasidir”-degan ta’rifi mohiyati izohlangan. Olim “jamoa” atamasi ostida avvalo o‘zida tarbiyaning alohida tarbiya ijtimoiy institutini gavdalantirgan bolalar tashkilotini nazarda tutganligi ishda izohlangan.

Tadqiqot ishida xorijiy bullingga qarshi mahalliy dasturlar Bulli & Pupe, Friendly Schools, S.S.Grin, SAVE, ViSc, shuningdek, jahonda yoshlar orasida bullingning oldini olish bo‘yicha samaradorligi bilan tan olingan uchta bullingga qarshi kurash dasturlari o‘rganilgan.

Olweus Bullying Prevention Programm – boshlang‘ich, o‘rta va katta maktabda bullingni kamaytirish va uning oldini olishga qaratilgan ko‘p darajali, ko‘p komponentli dastur ekanligi qayd etilgan. Dasturni yaratgan D.Olweus tengdoshlar muhitida ish g‘oyasiga va o‘qituvchilar bilan ishlashga o‘smirlarning viktimizatsiyasi hollatlari sonining muvaffaqiyatli kamayishining poydevori sifatida to‘laligicha tayanganligi ta’kidlangan. Dasturning xususiy maqsadlari sifatida: 1) maktabdagi bulling haqida o‘quvchilarning xabardorligi va bilimlarini oshirish; 2) bulling profilaktikasiga o‘qituvchilar va ota-onalarni jalb qilish; 3) zo‘ravonlikka qarshi aniq qoidalarni ishlab chiqish; qurbonlarni qo‘llab-quvvatlash va himoya qilish shartligi ilmiy tavsiflangan.

KiVa – maktablarda bullingning kamayishiga yo‘naltirilib, bullingning oldini olishda “kompleks dasturlar” majmuasidan iborat ekanligi asoslab berilgan. Dastur 1-sinfdan 9-sinfgacha bo‘lgan maktab o‘quvchilariga mo‘ljallanganlogi, «Kiva» so‘zi fin tilida “yaxshi” ma’nosini anglatib, Finlandiya madaniyat va ta’lim vazirligining buyurtmasiga asosan mazkur ilmiy-asoslangan dasturni Turku

universiteti olimlari tomonidan ishlab chiqilganligi ko'rsatilgan. Dastur Finlandiyada eng ko'p foydalanadigan dastur ekanligi va hozirgi kunda Finlandiyadagi mamlakatdagi barcha maktablarning 50% KiVa dasturidan foydalanishi ko'rsatib o'tilgan. Bundan tashqari, KiVa dasturi dunyoning 20 dan ziyod mamlakatlarida qo'llanilishi va dasturga bo'lgan qiziqish haligacha yuqori ekanligi bayon etilgan. Dastur uchta bosqichdan iborat: 1.Profilaktika chora-tadbirlari. 2.Bulling holatlarini aniqlash va bartaraf etish. 3. Natijalarni baholash va tahlil etish.

Positive Action, PA (Ijobiy harakat) – deviant xulq-atvorning ko'plab turlari, jumladan bullingni oldini olish bo'yicha AQShda yaratilgan ilk dastur sifatida tavsiflangan. Mazkur dasturning diqqat e'tiborida maktab bullingi emas, har qanday deviant xulq-atvor turishi, bu ijtimoiy-emotsional ta'lim maktab dasturi hisoblanib, boshlang'ich va o'rta maktablar uchun mo'ljallangan. Dastur yordamida o'quvchilarda ijobiy xulq-atvorning shakllanishi, deviant xulq-atvorning ko'rsatkichlarining pasayishi, ijtimoiy-emotsional ta'lim ko'nikmalari va maktab muhiti yaxshilanishiga erishilganligi bayon etilgan.

Tadqiqot jarayonida turli bullingga qarshi kurash bo'yicha dasturlarda elementlarning mavjudligi tahlili amalga oshirilgan (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Bullingga qarshi kurashning turli dasturlarida elementlarning mavjudligi

	OBPP	KIVA	POSITIVE ACTION	FRIENDLY SCHOOL	VISC	GRIN	SAVE	BULLY PUPE
Tengdoshlar bilan ishlash	+	+	+	+	+	+	+	+
Dissiplinar uslublar	+		+	+			+	
Qayta tiklanish yondashuvlari (reabilitatsiya)				+		+		
Ota-onalarning roli	+	+		+				
O'qituvchilar va ota-onalarning roli	+	+	+		+		+	+

Yuqorida qayd etilgan dasturlarning katta qismi Ttofi va Farington tomonidan belgilangan dasturlar samaradorlik mezonlaridan foydalangan holda tahlil etilgan. Samaradorlik asosida biz bu va keyingi o'rinlarda:

dasturning sinovdan o'tish va joriy etilishi bosqichida masxaralashning tarqalganlik ko'rsatkichlarini barqaror pasaytirish;

dasturlardan foydalanishning keyinga qoldirilgan baholarning mavjudligi;
uslubiy tavsiyalarning bayon etilishi;

bullingga qarshi yo'riqnomalarni joriy etishning majmuaviy dasturi nazarda tutilgan.

Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida bulling tushunchasining ta'rifi mavjud bo'lmasa-da, yuridik nuqtai nazardan zo'ravonlik atamasiga ta'rif "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonunda ilk bora qayd etilganligi hamda ushbu qonunda asosiy jinsiy, iqtisodiy, jismoniy, psixologik zo'ravonlik va tazyiq tushunchalariga ta'rif berilganligi haqida ma'lumotlar berib o'tilgan.

Ta'lim tizimi bulling profilaktikasida katta imkoniyatlarga ega ekanligi e'tirof etilib, mazkur tizimning kasbiy va tashkiliy resurslari, uning ijtimoiy ta'siri sohasi ta'lim muhiti doirasida o'zaro hurmat va maktabda bulling holatlariga yo'l qo'ymaslikka asoslangan xulq-atvor modelini shakllantirish maqsadida ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga, ularning manfaatlariga majmuaviy va tizimli ta'sirni o'tkazishga imkon berishi izohlangan.

Tadqiqot ishida O'zbekiston Respublikasining maktabda bullingni oldini olish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar o'rganilgan. Xalq ta'limi vazirligi tomonidan bulling profilaktikasi bo'yicha maktab psixologlari uchun o'quv reja, tavsiyalar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqilganligi professor Lori Vulf tomonidan 14 ta mintaqada uslubshunos-psixologlar va maktab psixologlari uchun "Pozitiv psixologiya, stressni boshqarish – maktabda psixologik ma'murchilik yo'lida" mavzusida bir kunlik treninglarni o'tkazganligi ta'kidlangan.

2021-yilda Yoshlari ishlari agentligi huzuridagi Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti tomonidan 9-, 10-, 11- sinflar (1200 respondent) o'quvchilari orasida Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 viloyat va Toshkent shahrida tadqiqot o'tkazilib, unda yoshlarning bullingga nisbatan xabardorligi va ularning munosabati o'rganilgan, jumladan, bullingning shaxsni shakllanishiga va o'quvchilarning o'zlashtirishiga ta'siri haqidagi tasavvurlari o'rganilgan. Tadqiqotning natijalariga ko'ra quyidagilar aniqlangan:

Maktab o'quvchilarining 56,4%i bulling tushunchasi haqida tasavvurga ega; 13-yoshdan 15-yoshgacha 80% maktab o'quvchilari u yoki bu shakldagi bulling qurboni bo'lgan; 8,2 % respondentlar kiberbulling bilan to'qnashishgan; 30,5% respondentlar bullingga bo'lgan moyillikning asosiy omili - oilada muhabbat va e'tiborning yetishmasligi; 29,7 % oilaviy nizolar (janjallar); 78% respondentlar maktabda o'qituvchilar bulling holatlarining oldini olishga qaratilgan amaliy ishlar olib borishi; 28,1 % o'quvchilar bulling qurboni bo'lsa sinf rahbariga yoki o'qituvchiga murojaat qilishi; 18,6% respondentlar tengdoshlari va o'qituvchilar tomonidan bullingga qarshi amaliy ishlari befoyda ekanligi; 27,8% maktab o'quvchilari o'z tengdoshlarini bulling qurboniga aylanganida (kuzatuvchi roli) himoya qilishga harakat qilmaganliklarini va kuzatuvchi rolida bo'lganliklarini ta'kidlashgan.

Dissertatsiyaning "**Bullingni oldini olishda liderlar salohiyati pedagogik algoritmining tarkibiy qismi**" deb nomlangan ikkinchi bobida maktabda bullingni bartaraf etishning 4 ta pedagogik algoritmi, asosiy komponentlari va metodlari, liderlar tizimi, shuningdek, "tengdosh tengdoshga o'rgatadi" tamoyiliga

ko'ra do'stona va xayrxoh muhitni yaratish uchun modulli darslardan foydalanish masalalari yoritilgan.

Tadqiqot ishining birinchi algoritmi **“Maktabning bullingga qarshi nizomi”** maktabdagi bullingning oldini olish va unga yo'l qo'ymaslik, shuningdek bulling belgilarini aniqlagashda ta'lim jarayoniga mas'ul barcha ishtirokchilarning o'zaro hamkorlikdagi ishlarning tartibga soladigan me'yoriy hujjat ekanligi asoslab berilgan. Mazkur nizom maktab direktori, o'rinbosarlari, o'qituvchilar, o'quvchilar, ularning ota-onalari, texnik xodimlar va boshqa qonuniy vakillarning xulq-atvor qoidalari, huquq va majburiyatlari belgilangan hujjat ekanligi ta'kidlangan.

Maktabning me'yoriy-huquqiy hujjati tasdiqlagandan so'ng, ikkinchi algoritmi **“Bullingning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi”** ishlab chiqilganligi, mazkur reja ta'lim jarayoniga mas'ul barcha xodimlarning majmuaviy ishining yillik ish rejasi hisoblanib, chora-tadbirlar rejasi quyidagi yo'nalishlardan iborat: me'yoriy-huquqiy hujjatni tasdiqlash, tizimli ravishda test va so'rovnomalar o'tkazish va dinamikasi to'g'risida doimiy monitoringini olib borish, o'qituvchilar, o'quvchilar, ularning ota-onalari bilan ishlash hamda bulling profilaktikasi bo'yicha turli xil aksiyalar va tanlovlardan iborat.

Uchinchi algoritmi **anketalar, testlar va so'rovnomalarni** o'zida mujassam etadi. I.M. Yusupov tomonidan ishlab chiqilgan empatiya qobiliyatining rivojlanish darajasini aniqlash, insonning hissiy kechinmalariga hamdard bo'la olishi, Mixelsonning kommunikativ layoqatlar test-so'rovnomasi, kommunikativ-kompetentlikning darajasi, jumladan insonlar bilan erkin muloqotga kirishish darajasini aniqlash, tushunish yoki tinglash, jamoada ishlash, shuningdek, “bulling” tushunchasi haqida bilimlarini aniqlash testidan testidan iborat ekanligi asoslab berilgan.


To'rtinchi algoritmi sifatida tadqiqotchi **“Tengdosh tengdoshga o'rgatadi” tamoyili asosida** “5 leader moduls” dasturi yordamida bullingni oldini olish bo'yicha liderning bilimlarini shakllantirish bo'yicha kompleks dasturi mohiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, **“tengdosh tengdoshga o'rgatadi”** yondashuvi (TTO' yo'ndashuvi) ijtimoiy dolzarb axborotni ishonchli, do'stona muloqot orqali liderlar tomonidan tengdoshlariga yetkazilgan ma'lumot (mashg'ulotlar, treninglar, aksiyalar, suhbatlar, maslahatlar) tez va sifatli o'zlashtirilishi dalillangan.

Tadqiqot ishida o'smirlilik inqirozi zamonaviy bolalarning eng katta muammosi bo'lib, bolani “kattalar dunyosiga” qiziqishi bilan xarakterlanishi o'rganilgan. Tengdoshning roli pedagogning roliga o'xshash emasligi: uning o'rgatmatmasligi va tarbiyalamasligi, **balki bilimlarni, pozitiv tajribani yetkazishi**, bilimlarga asoslangan o'zgalarga nisbatan qayg'urishi va o'zining shaxsiy fikrini shakllantirishi ta'kidlangan.

Masalani o'rganishda “tengdosh tengdoshga o'rgatadi” tamoyili asosida “5 leader moduls” dasturini amalga oshirish uchun O'zbekiston yoshlar Ittifoqi huzuridagi “Kamalak” bolalar tashkilotining liderlar tizimi obyekt sifatida tanlab olinib, tadqiqotchi Sardorlar Kengashining yo'nalishlari, tuzilmasi, faoliyatini o'rganib chiqilgan. O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi hamda Xalq ta'limi vazirligining

2017-yil 15-sentyabr kuni imzolangan qo‘shma qaroriga asosan sardorlar tizimi quyidagi yo‘nalishlar asosida yo‘lga qoyilganligi ko‘rsatilgan:


Yoshlar ittifoqining bosh sardori hamda 8 nafar yo‘nalish sardorlari (14-18 yosh) “Ma’naviy-ma’rifiy va axloqiy”, “Siyosiy va huquqiy savodxonlik”, “Iqtidorli yoshlar”, “Tashabbuslar va loyihalar”, “Sport va harbiy vatanparvarlik”, “Ekologiya va salomatlik”, “Ijtimoiy himoya”, “Press klub”. “Kamalak” bosh sardori 8 nafar yo‘nalish sardorlari “Yurist-konsult”, “Mehnat bo‘limi”, “O‘quv bo‘limi”, “Ekosan”, “Tashkiliy bo‘lim”, “Mehr-shafqat”, “Axborot xizmati”, “Yetakchi” (10-14 yosh). Jami sardorlar kengashi 18 nafarni tashkil etilishi belgilangan (1-rasmga qarang).



1-rasm. O‘zbekiston yoshlar ittifoqi hamda Xalq ta’limi vazirligining 2017-yil 15-sentabr kuni imzolangan Qo‘shma Qaroriga muvofiq liderlar tuzilmasi

Yangi tuzilmaga ko‘ra, o‘quv yili boshida 4–7 sinflarda “Kamalak”, 8–11 sinflarda “Ittifoq” sinf liderlari o‘quvchilar orasida ovoz berish yo‘li bilan saylanishi ta’kidlangan. Keyingi bosqichda sinf liderlari 14 kishidan iborat maktab kengashining saylovlarida ishtirok etishi, umumta’lim muassasalarida kengashning har bir yosh toifasida 6 nafardan: ekologiya, madaniyat, ta’lim, media, sport va “imkon” yo‘nalishi bo‘yicha jami 14 nafar Liderlar Kengashi saylanishi xususida to‘xtalib o‘tilgan. Maktabning saylangan liderlari tuman (shahar) saylovlarida, tuman kengashining liderlari esa, viloyat saylovlarida ishtirok etishishi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar sardorlar kengashi, jami 194 nafar lider respublika bosqichi saylovlarida qatnashishi haqida ma’lumotlar keltirilgan (2-rasmga qarang).

**Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida
O‘zbekiston Yoshlar ittifoqining Sardorlar Kengashi
TUZILMASI**



2-rasm. Xalq ta’limi vazirligi va O‘zbekiston Yoshlar ittifoqining “Umumta’lim maktablarida birlamchi tashkilotning liderlarining samarali ishini tashkil etish to‘g‘risida”gi 2020-yil 16-sentyabrdagi C38-66QQ sonli qo‘shma qarorida belgilangan Liderlar kengashining yangi tuzilmasi

